

14-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida ifodalang.

75

42

38

51

67

26

Qaysi ikkita sonning yig'indisi yaxlit son hosil qiladi?



2. Misollarni namuna bo'yicha yeching.

Namuna:

$$21 + 39 = (20 + 30) + (1 + 9) = 50 + 10 = 60$$

$$59 + 11$$

$$36 + 44$$

$$32 + 28$$

$$73 + 17$$



3. O'quvchilar O'zbekistondagi foydali qazilmalar nomini sanab o'tishdi. Birinchi jamoa 12 ta, ikkinchi jamoa esa 18 ta nomni esladi. Har ikkala jamoa jami nechta nomni esladi?



4. Hisoblang. Natijalarni **o'sish** tartibida joylashtiring. Ko'cha bezaklari va haykallar qaysi toshdan tayyorlanishini aniqlang.

A $24 + 26$

G $11 + 19$

R $25 + 15$

I $21 + 49$

N $48 + 12$

T $43 + 47$



5. Sxema bo'yicha masala tuzing. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, ushbu masalani yeching.




■ – toshko'mir

▲ – neft

△ – tabiiy gaz



6. Diagrammada shahar muzeyidagi foydali qazilmalar namunalarining soni tasvirlangan.



Ushbu ifodalar nimani anglatadi?

$$90 - 50$$

$$40 + 10$$

$$50 + 20 + 10$$

$$(40 + 10) - 20$$



7. Sonlar qanday qoidaga asosan guruhlarga bo'linganligini o'ylab ko'ring. O'zingiz yana bitta guruh o'ylab toping.

$$\begin{matrix} 19 & 11 \\ \hline 30 \end{matrix}$$

$$\begin{matrix} 48 & 22 \\ \hline 70 \end{matrix}$$

$$\begin{matrix} 57 & 23 \\ \hline 80 \end{matrix}$$

$$\begin{matrix} 16 & 24 \\ \hline 40 \end{matrix}$$

$$\begin{matrix} 35 & 55 \\ \hline 90 \end{matrix}$$



8. Ustada to'g'ri to'rtburchak shaklidagi taxtacha bor. Uni ikkita teng to'g'ri to'rtburchakka bo'lish kerak. Buni amalga oshirishning nechta usuli bor?



9. Hisoblang.

$$42 \text{ kg} + 18 \text{ kg}$$

$$21 \text{ kg} + 49 \text{ kg}$$

$$64 \text{ dm} + 26 \text{ dm}$$

$$55 \text{ dm} + 15 \text{ dm}$$

$$13 \text{ cm} + 17 \text{ cm}$$

$$27 \text{ cm} + 23 \text{ cm}$$

10. Muzeyda ikkita granit namunasi turibdi. Ulardan birining massasi 12 kg, ikkinchisining massasi esa birinchisidan 8 kg ko'p. Bu ikki namuna birgalikda necha kilogramm bo'ladi?

